

KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK SOHALARIDA TUTGAN O'RNI

PhD Mamataliyeva N.X.

Bo'riyeva Aziza Qilich qizi

TerDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada konsept tushunchasining zamonaviy tilshunoslikdagi talqini kengroq yoritilgan bo'lib, jahon va o'zbek olimlarining konsept tushunchasi bo'yicha ilgari surgan nazariy qarashlari, turli ilmiy yondashuvlar, shuningdek, ushbu tushunchaning semantik, pragmatik va lingvokulturologik jihatlari batafsil tahlil qilingan. Maqola davomida konseptning madaniyatlararo xususiyatlari, uning inson ongida shakllanishi va til vositalarida aks etishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ham ko'rsatib o'tilgan. Ushbu tahlil konseptning milliy madaniyat va tilning o'ziga xos tomonlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etishini isbotlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar; zamonaviy tilshunoslik, konsept, kognitiv tilshunoslik, madaniy tilshunoslik, konseptual guruhlar.

Tan olish joizki, XX asr nafaqat texnika sohasidagi yangiliklari bilan balki, ko'plab ijtimoiy fan va sohalarning rivojlanishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina tilshunoslik sohasini misol tariqasida oladigan bo'lsak, ushbu davrga kelib unda ham ko'plab izlanish va tadqiqotlar natijasida kognitiv lingvistika, lingvopragmatika, lingvomadaniyat kabi turli zamonaviy yo'nalishlar shakllandi. Ayni shu sababdan ham tilda ma'lum tushunchalarni biryoqlama emas, balki ko'pqirrali tahlil qilish imkoni paydo bo'ldi. Misol tariqasida birgina konsept tushunchasini oladigan bo'lsak, bu yo'nalish ko'plab tilshunos olimlarning diqqatini o'ziga tortgan holda bugungi kunda ham keng tadqiq etib kelinmoqda. Dastlab konsept atamasi 1928-yilda rus tilshunosi Askaldovning maqolasida qo'llangan bo'lib, u konseptni "bu bir tur yoki boshqa turdagi

tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlikdir”¹, deya izohlagan. Biroq bu atama XX asrning 70-yillariga kelib chuqur izoh talab qiladigan tushunchalardan biriga aylanadi. 80- yillarda ingliz olimlari Cheyf, R., Jakendof², Lakof³ larning asarlari konsept atamasining tilshunoslar iste’moliga kirishiga asosiy sababchi bo‘ldi. Aynan o‘sha matnlarda konseptualizatsiya, konseptual mohiyat atamalari uchrab turadi. Aslida “konsept” lotincha “conceptus” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuncha” ma’nosini bildirsa-da, kognitiv atamalar lug‘atida unga quyidagicha ta’rif beriladi: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. U zamonaviy tilshunoslikda biror bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Zamonaviy tilshunoslikda konsept muammosini o‘rganishning asosiy ikki yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ular: kognitiv va madaniy yo‘nalishlardir. Kognitiv tilshunoslikda “konsept” xotirada mavjud bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi murakkab aqliy birlik sifatida qaraladi. V.I. Karasikning ta’kidlashicha konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslik va madaniy tilshunoslikda bir xil ma’no kasb etmaydi. Kognitiv tilshunoslikda u ong va xotiramizda mavjud tushunchalar yig‘indisi bo‘lsa, madaniy tilshunoslikda esa har bir shaxsning madaniy tajribalar to‘plami va boyligidir. Bugungi davrda konsept so‘zlar, so‘z birikmalar, iboralar, maqollar va xatto matn orqali ifodalanishi tufayli u shunchaki tushuncha degan fikrni inkor etadi. Tilshunos A.P. Babushkin kognitiv jihatdan konseptni quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Lesik konseptlar. So‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalanadi.

Masalan:

bilim, ezgulik, porloq kelajak kabi.

2. Frazeologik konseptlar. Iboralar yordamida ifodalanadi. Masalan:

Og‘zi qulog‘ida, to‘nini teskari kiyib olgan.

¹ Аскалдов С.А Концепт и слово // Русская словесность от теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-С 267-280.

² Ray Jakendoff, 1989: “What is a concept, that a person may grasp it”. Program in Linguistics and Cognitive science Brandies University Watham

³ George Lakoff: 1980: Metaphors we live By.

3. Aniq konseptlar. Soʻzlar faqat oʻz maʼnosida qoʻllaniladi. Masalan: tosh, loy, qum, piyola, anor, daftar kabi.

4. Mavhum konseptlar. Mavhum tushunchalarni anglatadi. Masalan: goʻzallik, ozodlik, nafrat, adovat, adolat, poklik kabi[4;90].

Zamonaviy tilshunoslikning yana biri boʻlgan lingvomadaniyatda ham madaniyat konseptlari alohida tatqiq etiladi. Misol uchun vatan, ozodlik, qonun, taqdir, qismat kabi mavhum otlar madaniyatning asosiy konseptlari hisoblanadi. Shunga koʻra A.Y.Gurevich⁴ madaniyat konseptlarini fazoviy, falsafiy kategoriyalar va ijtimoiy kategoriyalar kabi ikki yirik kategoriyaga ajratadi. Fazoviy-falsafiy kategoriyalar yaʼni universal kategoriyalarga vaqt, makon, sabab, oʻzgarish, harakatni misol qiladigan boʻlsak, ijtimoiy kategoriyalarga erkinlik, huquq, mehnat, taʼlim, boylik kabi tushunchalar misol boʻla oladi. V.A.Maslova⁵ esa bu kategoriyalarga yana bir guruhni yaʼni milliy madaniyat kategoriyasini ham qayd etadi va buni kartoshka va non konseptining turli millatlarda turlicha talqini orqali ochib beradi[4;76].

Konseptning Taʼrifi va Mohiyati

Konsept – bu insonning ongida shakllangan maʼlumotlarning mental modeli boʻlib, u til orqali ifodalanadi va madaniyat bilan bogʻliq boʻladi. Masalan:

Jahon tilshunoslari: Konseptni axborot birligi (mental birlik) sifatida talqin qiladi (N. D. Arutyunova, S. A. Askoldov).

Oʻzbek tilshunoslari: Konseptni milliy-madaniy asosda til va madaniyatni birlashtiruvchi tushuncha deb koʻradi (O. Joʻrayev, M. Mahmudov).

2. Konseptning Strukturasi

Konsept uch qismdan iborat:

Yadro qismi – asosiy mazmuni tashkil qiladi (universal tushunchalar).

Periferik qismi – madaniy va shaxsiy omillarga bogʻliq tafsilotlar.

Assotsiativ qismi – ongda bogʻliq boʻlgan boshqa tushunchalar bilan aloqasi.

⁴ А.Я.Гурувич Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции.-М: Лабиринт, 2004-с.320

⁵ Маслова В.А. Лингвокультуралогия –М: “Academia”, 2001-с.208

3. Konsept va Madaniyat

Konsept milliy madaniyat bilan chambarchas bogʻliq. Har bir til oʻziga xos madaniy konseptlarni aks ettiradi. Masalan:

Oʻzbekcha "mehmon" konsepti mehmondoʻstlik, hurmat kabi madaniy qadriyatlarni aks ettiradi.

Inglizcha "privacy" konsepti shaxsiy erkinlik va mustaqillikni ifodalaydi.

4. Til va Konsept Munosabati

Til konseptni tashqi muhitga chiqaruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Konseptni tahlil qilishda quyidagi til birliklari koʻrib chiqiladi:

Leksik birliklar: Soʻz va frazeologizmlar (masalan, "oltin yurak" konsepti).

Metaforalar: Til orqali konseptualizatsiya qilish (masalan, "hayot yoʻli").

Kontekst: Konseptning vaziyatga qarab oʻzgarishi.

5. Konseptning Intermadaniy Tahlili

Turli madaniyatlarda bir xil konseptlar turli xil maʼno yuklaydi. Misollar: Oʻzbek madaniyatida "ota" konsepti: Oila boshligʻi, mehribonlik va kuch ramzi.

Yapon madaniyatida "oyaji": Hurmat va sadoqat bilan bogʻliq.

6. Amaliy Ahamiyati

Konsept tahlili lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi va kross-madaniy kommunikatsiyada keng qoʻllaniladi. Bu tahlil:

Milliy xususiyatlarni ochib berishga yordam beradi.

Til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni tushunishga koʻmaklashadi.

Konsept tahlili orqali til va madaniyatning oʻzaro taʼsir mexanizmlarini tushunish, milliy va universal qadriyatlarni ajratish hamda xalqaro kommunikatsiyani samarali yoʻlga qoʻyish mumkin. Konsept milliy madaniyatning til orqali ifodalanishidagi asosiy kalit boʻlib xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Arutyunova, N. D. (1999). *Yazyk i chelovek*. Moscow: Yazyki russkoy kultury.

2. Askoldov, S. A. (1997). *Kontsept i slovo*. In Russian literature and linguistics (pp. 267-279). Moscow: Nauka.
3. Jo‘rayev, O., & Mahmudov, M. (2020). *O‘zbek tilining lingvokulturologik asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
4. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
6. Sharifov, U. (2019). *Lingvokulturologiya va o‘zbek tili tadqiqotlari*. Toshkent: Fan va Texnologiya.
7. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. Oxford: Oxford University Press.